

**OILAVIY MUNOSABATLARDA MILLIY VA UMUMINSONIY  
QADRIYATLARNING OILAVIY TARBIYAVIY TA’SIRI**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Pedagogika kafedrası v,b dotsenti p.f.b.f.d (PhD)*

**Aripov Shokirjon Olimovich**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Pedagogika yo‘nalishi 22.26 guruh talabasi*

**Meliqo‘ziyeva Mohinurxon Mansurjon qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi hamda ularning farzand tarbiyasiga ko‘rsatadigan ma‘naviy-psixologik ta‘siri tahlil qilingan. Muallif o‘zbek oilalariga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, oila muqaddasligi va mehnatsevarlik kabi milliy an‘analarni inson huquqlari, erkinlik va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy mezonlar bilan bog‘lagan holda yoritadi. Maqolada barkamol avlodni shakllantirishda har ikki qadriyat turining o‘zaro muvozanatini saqlashning ahamiyati asoslab berilgan va zamonaviy oilaviy tarbiyani takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘z:** *Oila , jamiyat , qadriyat, axloq, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, oilaviy tarbiya, ma‘naviyat, komil inson, bag‘rikenglik, oilaviy munosabatlar.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируется взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей в семейных отношениях, а также их духовно-психологическое влияние на воспитание детей. Автор рассматривает такие национальные традиции, присущие узбекским семьям, как уважение к старшим, святость брака и трудолюбие, в сочетании с общечеловеческими критериями, такими как права человека, свобода и толерантность. В работе обосновывается важность сохранения баланса между обоими видами ценностей в процессе формирования гармонично развитого поколения, а также предлагаются практические рекомендации по совершенствованию современного семейного воспитания.*

**Ключевые слова:** *семья, национальные ценности, общечеловеческие ценности, семейное воспитание, духовность, гармонично развитая личность, толерантность, семейные отношения.*

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori bo‘lib, millatning tarixiy rivojlanish jarayonida erishilgan yutuqlarni avloddan avlodga yetkazib beruvchi muhim ma‘naviy omil hisoblanadi. Ma‘naviy va ruhiy jihatdan sog‘lom farzandning dunyoga kelishi hamda uning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishi avvalo sog‘lom, ahil va hamjihat oilaning mehnati va tarbiyasi samarasi sifatida qaraladi. Shu sababli oilada o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, yuksak axloqiy mezonlar hamda ma‘naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayonda milliy hamda umuminsoniy

qadriyatlarning o’rni beqiyosdir. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi bo’lib, har bir millat o’zining tarixiy rivojlanish yo’lida erishgan muvaffaqiyatlarini aynan shu qadriyatlar orqali saqlab keladi va keyingi avlodlarga yetkazadi. Tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko’rsatadiki, hech bir jamiyat o’zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmasdan va mustahkamlamasdan turib barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi. Shu bois milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy immuniteti sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda esa jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega va Vatan kelajagi uchun mas’uliyatni his qiladigan yosh avlodni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu ulkan mas’uliyat, avvalo, oilaning zimmasiga yuklanadi. Chunki bola tarbiyasining poydevori aynan oilada shakllanadi. Sog’lom va barqaror oilaviy muhitda ulg’ayayotgan farzand jamiyatning faol, ongli va ma’naviy yetuk a’zosiga aylanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarni oilaviy tarbiya jarayoniga singdirish orqali bolalar o’z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va an’alarini chuqur anglab boradi. Bu esa ularning o’zligini anglashiga, milliy g’urur va identitetining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global jamiyatda erkin va to’g’ri moslasha olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlar asosida shakllangan tarbiya bolalarda vatanparvarlik tuyg’usini kuchaytiradi. Ular Vatanga nisbatan muhabbat, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlarni o’zlashtiradi. Shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonida ham muhim rol o’ynaydi, chunki bunday tarbiya olgan yoshlar jamiyatdagi axloqiy me’yorlar, tartib-qoidalar va ijtimoiy qadriyatlarga hurmat bilan yondashadi hamda ularga rioya qilish ko’nikmasiga ega bo’ladi, bu esa ularning ijtimoiy hayotga tez va samarali moslashishiga yordam beradi. Oilada milliy qadriyatlarni qanday tatbiq qilish mumkin? Oilaviy an’alarni saqlab qolish va rivojlantirish: Oila a’zolari bilan birgalikda milliy bayramlarni nishonlash, xalqona urf-odatlarini bajarish bolalar uchun milliy qadriyatlarga hurmat hissini oshiradi. Oila kattalarining namuna ko’rsatishi: Kattalar o’z hayoti va xatti-harakatlari bilan milliy qadriyatlarga amal qilib, yoshlarga ulug’vor namunani ko’rsatishi kerak.

Bolalarni milliy san’at va madaniyat bilan tanishtirish ularning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish, milliy o’zlikni anglashini shakllantirish hamda estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda bolalarni milliy kuy-ko’shiqlar, xalq og’zaki ijodi namunalarini o’z ichiga olgan folklor ijodi, milliy liboslar hamda xalq amaliy san’atining boy namunalari bilan tanishtirib borish ularning madaniy merosga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Bunday yondashuv natijasida bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, o’z xalqining tarixiy ildizlariga qiziqish va madaniy merosga nisbatan faxr tuyg’usi shakllanadi. Milliy kuy-ko’shiqlar orqali ular xalqning ruhiyati, orzu-umidlari va hayot tarzi bilan tanishadi, folklor namunalari esa xalq donishmandligi va tarbiyaviy g’oyalarni anglab boradi.

Shuningdek, milliy liboslar bilan tanishish bolalarda estetik didni rivojlantirib, ularning milliy madaniyatga bo’lgan hurmatini kuchaytiradi. Xalq amaliy san’ati – hunarmandchilik, naqsh, kulolchilik, kashtachilik kabi yo’nalishlar esa bolalarda ijodkorlik, mehnatsevarlik va san’atga mehr uyg’otadi.

Umuman olganda, bolalarni milliy san’at va madaniyat bilan tizimli ravishda tanishtirish ularning ma’naviy yetuk, milliy o’zligini anglagan va madaniy merosga sodiq insonlar bo’lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Ma’lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgani sayin odamlarning o’zaro munosabatlari ham, shaxslararo aloqalar, ayniqsa, eng yaqin va samimiy hisoblangan oilaviy munosabatlar ham izchil ravishda rivojlanib, shu bilan birga murakkablashib boradi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy darajasi va iqtisodiy rivojlanishiga bevosita bog’liq holda shakllanadi. Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyotining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, ishlab chiqarish tizimlarining modernizatsiyasi, qishloq xo’jaligi va sanoat sohalarida zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi inson omiliga bo’lgan talabni tubdan o’zgartirmoqda. Ya’ni, endilikda insondan faqat mehnat ko’nikmasi emas, balki yuqori darajadagi tafakkur, mas’uliyat, moslashuvchanlik va ijtimoiy faollik ham talab etilmoqda. Shu bilan birga, ushbu o’zgarishlar oilaviy munosabatlarga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Oiladagi rollar, ota-ona va farzandlar o’rtasidagi munosabatlar, ularning o’zaro muloqot madaniyati yangi ijtimoiy sharoitga moslashib bormoqda. Endilikda oila nafaqat tarbiya maskani, balki shaxsning jamiyatga moslashuvini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda inson shaxsiga qo’yilayotgan talablar ham ortib bormoqda. Insondan mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, innovatsion yondashuv va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlar talab etilmoqda. Bu esa o’z navbatida oilada beriladigan tarbiyaning sifatiga ham bevosita bog’liqdir.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti bilan birga oilaviy munosabatlar ham takomillashib, murakkablashib borar ekan, bu jarayon oilada sog’lom ma’naviy muhitni shakllantirish, zamonaviy tarbiya usullarini qo’llash va inson kapitalini rivojlantirishni yanada dolzarb vazifaga aylantiradi. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya jarayonining nazariy asoslari yoritilib borilmoqda. Tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsni faqat bilimli va malakali qilib shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki uni ma’naviy jihatdan yetuk, insonparvar, vatanparvar hamda jamiyatda o’z o’rnini topa oladigan barkamol inson etib tarbiyalashdan iboratdir. Shu jihatdan tarbiya jarayoni shaxsning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Milliy qadriyatlar esa xalqning asrlar davomida shakllangan tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an’analari hamda boy ma’naviy merosiga tayanadi. Ular millatning o’ziga xosligini saqlab qolish, uning madaniy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda muhim o’rin tutadi. Milliy qadriyatlar orqali yosh avlod o’z xalqining tarixi, ildizlari va ma’naviy boyliklarini chuqurroq anglaydi hamda o’z milliy o’zligini mustahkamlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa butun insoniyatga xos bo’lgan yuksak axloqiy mezonlarni o’z ichiga oladi. Bular jumlasiga adolat, tinchlik, erkinlik, bag’rikenglik, inson huquqlariga hurmat kabi umumiy insoniy tamoyillar kiradi. Bu qadriyatlar barcha millat va elatlarni birlashtiruvchi, ularni o’zaro hamjihatlik va hamkorlikka undovchi muhim ma’naviy asos hisoblanadi. Shu sababli tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg’unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa shaxsning ham milliy o’zligini yo’qotmagan, ham global jamiyatda erkin moslasha

oladigan, yuksak ma‘naviyatli inson bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Tarbiyada qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali yosh avlodda ma‘naviy barkamollikni rivojlantirish va ilmiy-nazariy jihatdan ularga singdirilmoqda. Qolaversa bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti va ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ajdodlar merosi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi, inson faoliyatiga yo‘nalish beruvchi hamda axloqiy me‘yor va mezonlarni belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Qadriyatlar jamiyat a‘zolarining dunyoqarashi, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib, ularning ma‘naviy kamolotiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlar esa har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, tili, diniy qarashlari, urf-odat va an‘analari hamda tarixiy merosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ma‘naviy boyliklar tizimidir. Ular millatning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, avloddan avlodga o‘tib keladigan muhim ma‘naviy asos sifatida xizmat qiladi. Bunday qadriyatlar xalqning o‘zligini saqlash, milliy birlikni mustahkamlash va madaniy merosni davom ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ular yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar jamiyat hayotining barcha sohalariga singib, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va insonlarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli ular nafaqat tarixiy meros, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham muhim ma‘naviy tayanch hisoblanadi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – adolat, erkinlik, tinchlik, bag‘rikenglik, hurmat va inson sha‘nini ulug‘lash kabi tamoyillar – barcha xalqlar uchun umumiy ma‘naviy asos hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida ushbu qadriyatlarni uyg‘unlashtirish o‘quvchi shaxsining intellektual va axloqiy rivojlanishini ta‘minlash, uni har tomonlama yetuk, erkin fikrlovchi va ijtimoiy faol inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan yoshlar nafaqat o‘z xalqining madaniy merosini qadrlaydi, balki butun insoniyat manfaatlarini yo‘lida mas‘uliyatli qarorlar qabul qila oladi. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda, tarbiya jarayonida qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini chuqur va tizimli ravishda o‘rganish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Chunki tarbiya jarayonida qadriyatlar shaxsning ma‘naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya tizimini aynan qadriyatlar asosida tashkil etish o‘quvchi shaxsida milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirishga, shuningdek, vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bunday yondashuv yosh avlodda bag‘rikenglik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat hamda ijtimoiy mas‘uliyat kabi yuksak axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayoni nafaqat shaxsiy kamolotga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki ma‘naviy jihatdan yetuk, ongli va mas‘uliyatli yoshlar jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu sababli qadriyatlar asosida qurilgan tarbiya tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy totuvlik va ma‘naviy

5-May, 2026-yil

yuksalishining mustahkam poydevorini yaratadi. Tarbiya tizimini qadriyatlar asosida tashkil etish o‘quvchi shaxsida milliy g‘urur, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik va ijtimoiy mas‘uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma‘naviy yuksalishining poydevorini yaratadi. Tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi ta‘limning ma‘naviy asoslarini mustahkamlashda muhim omil deb hisoblayman. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, xususan, oilalar mustahkamligining o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Chunki tirik organizm salomatligi uni tashkil etuvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lgani kabi, butun organizmning to‘laqonli faoliyati ham har bir hujayraning o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishiga tayanadi. Xuddi shu singari, oila ham davlat va jamiyat deb ataladigan yirik ijtimoiy tizimning asosiy —hujayrasil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois har bir oilaning sog‘lom va barqaror bo‘lishi jamiyatning umumiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Oila ichidagi ijobiy psixologik muhit — o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, ishonch va hamjihatlik — nafaqat oilaviy totuvlikni ta‘minlaydi, balki shu muhitda voyaga yetayotgan farzandning shaxs sifatida shakllanishiga ham kuchli ta‘sir etadi. Ana shu muhitda ulg‘aygan bola keyinchalik jamiyatning faol a‘zosi sifatida mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Shu ma‘noda, inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlash lozim. Tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining asosiy poydevori aynan oilada shakllanadi. Oila jamiyat hayotining eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga mas‘ul bo‘lgan muhim tarbiya maskanidir. Oilada beriladigan dastlabki tarbiya bolaning kelajakdagi dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati va hayotiy maqsadlarini belgilab beradi.

O‘zbek oilalari an‘anaviy ravishda tarbiya va ma‘rifatga alohida e‘tibor qaratib kelgan. Ko‘plab oilalarda ota-onalarning savodxonligi va ma‘lumotlilik farzand tarbiyasida muhim rol o‘ynab, bolalarning bilimli, fikrlash doirasi keng, tashabbuskor va mas‘uliyatli insonlar bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, oiladagi tarbiya jarayoni bir tomonlama emas, balki uzluksiz va o‘zaro ta‘sirga asoslangan jarayondir. Ya‘ni ota-onalar farzandlarga faqat axloqiy va ma‘naviy bilim berib qolmasdan, o‘zlari ham zamonaviy tarbiya usullari, psixologik yondashuvlar va pedagogik bilimlarni muntazam o‘rganib borishlari zarur. Oilada ota shaxsining o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Ota odatda oilaning asosiy tayanchi sifatida hayotiy mas‘uliyatni zimmasiga oladi, turli sinov va qiyinchiliklarda bardoshlilik, adolatparvarlik va irodalilik namunasini ko‘rsatadi. Uning xatti-harakati va hayotiy pozitsiyasi farzandlar uchun muhim o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xatamov, N. Psixologiya asoslari. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, 2015. 310b.
2. Rahimov, R. Oila psixologiyasi. Fan va texnologiyalar, Toshkent, 2018. 250b.
3. Vigotskiy, L. S. Fikr va nutq. Pedagogika, Toshkent, 1986. 280b.
4. Leontyev, A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. O‘zbekiston, Toshkent, 1975. 350b.

5-May, 2026-yil

5. Kon, I. S. Yoshlarning psixologiyasi. Ma‘rifat, Toshkent, 1989. 230b.

6. Tojiboyeva X.M. —Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda —ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalaril // Monografiya. – Toshkent: —Tafakkur qanotil nashriyoti, 2021. – 208 bet.

7. Safarova R.G. va b. O‘quvchi-yoshlarda —ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari. - Monografiya. – T.: —Tafakkur qanotil nashriyoti, 2018 yil, 192 bet.

8. Aripov Sh.O. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘g‘il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg‘ona, 2023. 133 bet.

